



FORMATION OF ALGORITHM OF COMPREHENSIVE INVESTIGATION OF NEW MODELS LEVEL OF TECHNOLOGICAL COMPLICATION

Bazarbayeva Guzal Gulimovna¹, Mirkamalov Doniyor Mirsulton o'gli²

¹Associate Professor of the Tashkent Institute of Textile and Light Industry, Ph.D

²Student of the Tashkent Institute of Textile and Light Industry

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5345067>

ARTICLE INFO

Received: 15th August 2021

Accepted: 20th August 2021

Online: 25th August 2021

KEY WORDS

sketch, level of technological complexity, algorithm, constructive-technological indicators, complicating elements, enterprise.

ABSTRACT

The article shows a solution of the technological difficulty level of technological sketches during the technical sketch of the technical sketch of the technical sketch and a algorithm of comprehensive assessment of the cost of the appliances. With the help of this algorithm, it is possible to analyze the economic efficiency of the appliance during the project.

YANGI MODELLARNI TEXNOLOGIK MURAKKABLIK DARAJASINI KOMPLEKS BAHOLASH ALGORITMINI SHAKLLANTIRISH

Bazarbayeva Guzal Gulimovna¹, Mirkamalov Doniyor Mirsulton o'gli²

¹Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, Ph.D

²Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-avgust 2021

Ma'qullandi: 20- avgust 2021

Chop etildi: 25- avgust 2021

KALIT SO'ZLAR

eskiz, texnologik murakkablik darajasi, algoritmi, konstruktiv – texnologik ko'rsatkichlar, murakkablashtiruvchi elementlar, korxonalar.

ANNOTATSIYA

Maqolada yangi modellarni texnik eskiz davrida texnologik murakkablik darajasini aniqlash va buyum tannarxini kompleks baholash ketma-ketligi algoritmi berilgan. Bu algoritmi yordamida buyumni loyixalash bosqichida iqtisodiy samaradorligini taxlil qilish mumkin.



Algortim – berilgan natijaga erishish uchun bajarilishi kerak bo'lgan aniq ko'rsatmalar ketma-ketligidir, u berilgan ko'rsatmalarni bajara oluvchi operatsiyalar tartibini o'z ichiga oladi. Ma'lum bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur) hisoblanadi. [1,2].

Yangi modellarni texnologik murakkablik darajasini kompleks baholash algoritmini boshlanishida kiruvchi malumotlar yani modelning texnik eskizi, konstruktiv hususiyatlari, gazlama turu kiritiladi. Boshlanish buyrug'idan so'ng boshlang'ich ma'lumotlar tahlili amalga oshiriladi. Kiritilgan boshlang'ich ma'lumotlar ekspert baholashda aniqlangan ko'rsatkichlar orqali tahlil qilinadi.

Tanlangan ko'rsatkichlar konstruktiv, texnologik omillar va gazlamalar xususiyati hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlar orqali model eskizi visual tahlil qilinadi. Model eskizining murakkablashtiruvchi elementlari taxlil qilinadi. (1-Rasm). Murakkablik darajasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$MD=ME/UD_{soni} \quad (1)$$

formulasi orqali aniqlanadi.

Bu yerda, MD - murakkablik darajasi, ME - murakkablashtiruvchi elementlar soni, UD_{soni} - umumiy detallar soni.

Texnologik murakkablik darajasini aniqlashda ma'lumotlar bazasiga murojaat qilinadi. Texnologik murakkablik darajasini ishlov berish koeffitsienti, aniqlash quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$K_t=T/T_{baz} \quad (2)$$

formulasi orqali aniqlanadi.

Bu yerda, K_t - texnologik ishlov berish koeffitsienti,

T - texnologik murakkab jarayonlar soni,

T_{baz} - bazaviy texnologik jarayonlar soni.


Yuqoridagi jarayonlar tahlilidan so'ng, buyumning sermehnatlilik ko'rsatkichi hisoblanadi. Sermehnatlilik ko'rsatkichini ma'lumotlar bazasida mavjud modellar asosida amalga oshiriladi. Sermehnatlilik ko'rsatkichini aniqlash:

$$T_b=f(MD) \quad (3)$$

formulasi orqali aniqlanadi.

Mazkur jarayonlardan so'ng, olingan natijalar tahlil qilinadi. Natijalar tahlili davomida texnologik ishlov berish qiymati aniqlanadi. Texnologik ishlov berish qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

1-Rasm. Yangi modellarni texnologik murakkablik darajasini kompleks baholash algoritmi





$$T_{\text{tex.ish.b.}} = S_t + K_t + T \quad (4)$$

Texnologik ishlov berish qiymati aniqlangandan so'ng, gazlama va furnitura sarf-harajatlarini aniqlash uchun ma'lumotlar bazasiga murojaat qilinadi. [3,4,5]. Model tannarxi texnologik ishlov berish qiymati va gazlamalar sarf-harajatlari aniqlanganidan so'ng topiladi:

$$M_{\text{tan.}} = T_{\text{tex.ish.b.}} + M_{\text{gaz.narxi}} \quad (5)$$

Model tannarxi buyurtmachi taklif qilgan narx bilan solishtiriladi. Agar taklif etilgan

narx model tannarxidan kam bo'lsa, shuningdek rentabellik 20 % dan kam bo'lsa, model eskizi o'zgartirish kiritish uchun marketing bo'limiga kiritiladi. Agar taklif etilgan narx model tannarxiga mos kelsa, mazkur model ishlab chiqarishga joriy qilinadi. Yangi modellarni texnik eskiz davrida tannarxini aniqlash iqtisodiy samaradorligi past bo'lgan modellarni ishlab chiqarish bilan bog'liq iqtisodiy tavakkal darajasini kamaytirad

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Майкл Солтис. Введение в анализ алгоритмов. Нью Йорк. 2019.
2. Фоминых Р.Л., Коршунов, А.И. Якимович Б.А. Метод прогнозирования трудоемкости изготовления машиностроительного изделия с учетом организационно-технического уровня производственной системы. Журнал депонированных рукописей. №9, сентябрь 2003.
3. Жасминов Г.Г. Обеспечение технологичности промышленных изделий. дисс. на соик. д.т.н., 2002
4. Золотцева Л.В., Ильичева Н.В., Лазарчик Е.В. Оптимальное проектирование- оптимальное качество. «Рынок легкой промышленности», №4, 2000.
5. Узакбаева Г.А., Базарбаева Г.Г. Analysis of the main factors for a comprehensive assessment of the level of difficulty of sewing products models. Научный журнал. «Образование и наука в XXI веке». Апрель 2021.